



POLIETNIK TA'LIM MUHITIDA CHET TILINI O'QITISHDA MULTIMEDIYAVIY O'QUV ADABIYOTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Mambetova I. J.

*Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz RDU Filiali,
"Xorijiy tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: polietnik ta'lim muhiti, multimediyaviy ta'lim resurslari, madaniyatlar dialogi, multimediyaviy dasturlar, didaktik xususiyatlar

Ключевые слова: полиэтническая образовательная среда, мультимедийные образовательные ресурсы, диалог культур, мультимедийные программы, дидактические особенности

Key words: multiethnic educational environment, multimedia educational resources, dialogue of cultures, multimedia programs, didactic peculiarities

Mamlakatimiz oliy ta'limi sohasida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalarga asoslangan holda raqamli va multimediyaviy texnologiyalar orqali chet tilini o'qitish, talabalarda lingvistik kompetentlikni shakllantirishning meyoriy asoslari va moddiy texnik bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-sonli Qarorida «Xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratilishini tashkil etish» ustivor vazifa etib belgilandi. Natijada ingliz tilini o'qitishda talabalarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish tizimi, metodikasi va didaktik ta'minotining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, ilmiy tahlil qilish hamda tegishli ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar asosida ilgari surilgan g'oyalarni amaliyotga tadbir etishda innovatsion texnologiyalardan, xususan, multimediyaviy o'quv adabiyotlaridan foydalanish, virtual texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.



Oliy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga chet tilini o'qitish ijtimoiy-madaniy amaliyotning bir shakli bo'lishi bilan birga, mustaqil ilmiy–pedagogik tarmoq bo'lib ham hisoblanadi. Pedagogik jarayon sifatida chet tilini o'qitishning bosh maqsadi va mazmuni, ta'lim berish usullari, ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchilarning shaxsi mujassamlashganligi bilan birga, ta'lim muhiti va unga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy omillar ham mavjudligini kuzatish mumkinligi aniqlangan. Shularni hisobga olgan holda, E.I. Solovtsova aytib o'tganidek, “Til o'rganuvchidan milliy madaniyati va o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi xalqlar madaniyati haqida axborot jamlash, ularning mohiyatini anglash, tahlilini amalga oshirish, umumlashtirish, guruhlarga ajratish lozim bo'ladi”. Undan tashqari, ingliz tilini o'zlashtirish jarayoni an'anaviy, zamonaviy hamda interfaol ta'lim metodlari vositasida audio-video materiallar yordamida o'tkazilsa, talabalarning o'quv faoliyatini mahsuldorligi ta'minlanib, til jarayoniga moddiy va ma'naviy madaniyatni ta'sirini belgilab tinglash (audirovanie) bilan bog'liq muammolar yengil kechishi ta'minlanadi. Bunda, o'quv materiallarini o'zlashtirish ta'limiy-kommunikativ, ya'ni “Mening madaniyatim – Sening madaniyating” tarzidagi madaniyatlar dialogi ko'rinishida o'tkazilsa, sub'ektiv-ma'noli muloqot ingliz tilini o'zlashtiruvchini shaxs sifatida o'zlashtirgan lug'aviy so'zlarni amaliyotda qo'llay olishiga erishiladi.

Madaniyatlar dialogi kontekstida chet tilini qoraqalpoq tilidagi ta'lim muassasalarida talabalarga o'rgatishda til – yaxlit dunyoqarashni ta'minlashini yaqqol nazarda tutish kerak. Mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan M.S.Byram dunyo haqidagi munosabatini tasvir etishda “Har bir millat til vositasida ifodalab, til – yaxlit dunyoqarashni ifodalab beradi” deb ta'kidlagan.

Qoraqalpoq tilida ta'lim olib borilayotgan oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini o'qitish, alohida faoliyat mahsulini anglatuvchi ko'p mazmunli tushuncha hisoblanishi bilan birgalikda, uni bir qator didaktik funksiyalari ham mavjudligini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan ushbu tushuncha quyidagi mazmunlarni anglatadi:

- tadqiq etilayotgan mavzuni qoraqalpoq madaniyati bilan bog'lab, yangi so'z va iboralarni ongli idrok etish jarayonini ta'minlash;
- uzatilgan yangi axborot(bilim)ni mustahkamlashda, mental o'ziga xoslikni inobatga olib, ayrim tushuncha va iboralarning ekvivalentini bazaviy shaxs madaniyatidan namuna keltirish;
- uzatilgan axborot(bilim)ni o'zlashtirilganligini amaliyotga tatbiq etishni baholash.

Qoraqalpoq tilida ta'lim olib borilayotgan oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda muhim vazifa sifatida o'rganilayotgan turkum madaniyatining variantliligi va turli-tumanligi bilan tanishib, bunda "Madaniyatlar dialogi texnologiyasi" asosida yondashish talabalarni muloqotga kirishishini diagnostikasini, ustuvor motivlarni aniqlash, uzatilayotgan yangi materiallarni qayta ishlash, o'zaro aloqadorlikni ta'minlashni turli ko'rinishini belgilash imkonini beradi.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhiti, talabalarning intellektini (til intellektini: tilga nisbatan pozitiv munosabat, tilni his etish, motivatsiya, xotira, tahliliy tafakkur va b.) rivojlantiruvchi vositasi hisoblanib, virtual borliqda individual tarzda chet tilini o'rganish bo'yicha o'quv vazifalarini bajarib, iqtidorli talaba uchun tashqi qo'zg'atuvchi, ya'ni harakatga keltiruvchi ruhiy omil bo'lishi lozim. Buning uchun oliy ta'limning qoraqalpoq guruhlarining ta'lim jarayonida rag'batlantiruvchi va pedagogik samara beruvchi omil tarzida "Madaniyatlar dialogi" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bunda nafaqat sub'ektlar ishtirok etadi, balki madaniyat (va uning namunalari), mantiq tarzi (etnikidrok tarzida), ma'nolar majmui va pozitsiyalar o'zaro "yuzlashadi". Bizning namunamizda pedagogik resurs sifatida uzoq yillik tarixga ega bo'lgan Qoraqalpoq etnomadaniy namunalari ifodalanadi. Bu jarayonda pedagogik resurs faqatgina til jarayonini ta'minlab qolmasdan, konstruktiv faoliyatni shakllantiruvchi, rejalashtirish va namoyon etishni belgilovchi, refleksiyaning yanada rivojlantiruvchi vosita tarzida ham amal qiladi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashda, bir vaqtning o'zida talabanning sensorli tizimini faollashtirishi (ko'rish, Tinglash hamda ta'm bilish kabilar) ta'minlanadi. Ekranda harakatlanuvchi ob'ektlarni madaniyatlar dialogining asosiy bosh g'oyasi asosida "Mening madaniyatim – sening madaniyating" tarzida yoki "Mening ma'naviy dunyoim – sening ma'naviy dunyoying" shaklida paydo bo'lishi esa, talabanning faqatgina ko'rish faolligini ta'minlashdan tashqari, murakkab aqliy faoliyatni - qiyoslash operatsiyasini amalga oshirishni taqozo etadi.

Namoyish etilayotgan ovozi tasvirlar pertseptiv tsiklni faollashuvini saqlab qolishni ta'minlaydi, kuzatuv ob'ektlarini oldindan tegishli yo'nalishlar bo'yicha kategoriyalarga ajratishni ta'minlaydi. Har bir bosqichda ma'lum tafakkur operatsiyalari bajariladi, bunda barcha qamrovlarda til etnik tafakkurning diagnostikasini amalga oshiradiki, qoraqalpoq guruhlarida chet tilini o'qitish amaliyotida alohida mazmun kasb etadi. A.M.Bushuyning "etnik madaniyat mazmunning qamrovi"ga oid yondashuvi bu o'rinda e'tiborli sanaladi.



Uzoq o'tgan yillar davomida, ya'ni axborot texnologiyalari rivojlanmagan davrda o'quv materiallarini yetkazishning an'anaviy va dominant shakli yuzmayuz ma'ruzalar yoki kitoblar ko'rinishida og'zaki va yozma nutq vositasida ta'lim oluvchilarga yetkazilganligi bizga ma'lum. Ya.A.Komenskiyning "Namunasiz hech narsani o'rgana olmaysiz" degan g'oyasi ta'limiy materiallarni chizmalar va rasmlar bilan to'ldirish uchun asosiy turtki bo'ldi.

Bizning nazarimizda bugungi kunga kelib, ayniqsa, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, kompyuter animatsiyasi va grafikasi, interaktiv vizuallashtirish texnologiyalarining faol tarzda ta'lim amaliyotiga tatbiq etilishi raqamli ta'lim muhitini vujudga keltirdi deb ayta olamiz.

Ta'lim-tarbiya derivatsion jarayonni ta'minlab, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini ta'minlash uchun munosib kadrlar tayyorlab beradi. Ta'lim-tarbiya aniq bir ijtimoiy makondagi borliqning sifat, son va mazmundorligini oshirish uchun xizmatqilib, uning evazida jamiyat hayoti takomillashib, galdagi rivojlanish bosqichiga erishish uchun ma'naviy zamin yaratiladi. Tadqiqotchilarning ko'rsatib o'tishicha, ta'limda yangi texnologiyalarni qo'llash, pedagogik mahoratga ega bo'lish, pedagogik faoliyatning monitoringini amalga oshirish, ta'lim berish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llash pedagogik faoliyatda samaradorlikka erishish hisoblanib, multimediyaviy manbalar bundan xoli emas. Ular, multimediyaviy bo'lmagan manbalardan:

video-audio yozuvlar, rasm, (ma'lumotlar kompyuterda raqamlashtirilgan tarzda saqlanadi va tahlil qilinadi);

"ma'rifiy resurs - dastur – etnik madaniyat - inson" kabi hamkorlikka amal qiladi;

gipermatnning mavjudligi bilan farqlanadi.

Bunda ijodkor inson – multimediyaviy manba yaratuvchisi, ta'lim oluvchining shaxsiga ta'lim jarayonining faqatgina ishtirokchisi sifatida yondashmasligi lozim bo'ladi. Bizning fikrimizcha, pedagogning o'z funktsiyalarini maromiga yetkazib bajarishida ta'lim oluvchilar asosiy manba sifatida ishtirok etadilar. Bunda, ularni o'quv motivi, ta'lim jarayonidan kutishlari, milliy an'ana va qadriyatlarining shakllanganligi, tayanch madaniyat sohibi ekanligi, shaxsiy maqsadini to'g'ri shakllanganligi, ma'naviyatlilik darajasi kabi ma'naviy xossalari ta'lim olish va ta'lim berish jarayonini samarali kechishini ta'minlaydi.

Polietnik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga chet tilini o'qitish amaliyotida AKT dan foydalanish bevosita ta'lim tizimini axborotlashuvi bilan bog'liq jarayon hisoblanib, faqatgina ta'lim berish sohasini emas, balki madaniy yaxlitlik tarzida chet tili ta'limini to'g'ri tartibda

rejalashtirish, boshqarish, tarkibiy tuzilishiga qarab kategoriyalashtirish, talabalarining tilni o'rganganlik darajasini va o'zlashtirish jarayonini baholash, o'quv faoliyatini samaradorligini ta'minlash kabi sohalarni ham qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Bu esa o'z navbatida, chet tilini o'qitishni rejalashtirish va amalga oshirishda didaktik maqsad asosida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni birlashtirib, "Professor-o'qituvchi-etnomadaniyat – talaba – AKT – madaniyatlar dialogi - til o'rganish faoliyati" tarzida o'quv jarayonini ta'minlashni taqozo etadi. Shunda chet tilini o'qitish faoliyatida samaradorlikka erishish ta'minlanadi.

Polietnik oliy ta'lim muhitida chet tilini o'qitishda multimediyaviy dasturlardan foydalanish o'z tendentsiyasiga ega bo'lib, uni mazmun-mohiyatini anglash uchun rivojlanish bosqichlarini belgilash lozim bo'ladi. Chet tilini multimediyaviy tarzda o'qitish jarayonining rivojini to'rtinchi ortiq bosqichni o'z ichiga oladi. Bulardan, birinchi bosqichi, XX-asrning 45 – 60 yillariga mos tushib, V.Bush tomonidan "Memex" (MEMory Extension) elektron-mexanik qurilma loyihasini ishlab chiqqanligi bilan boshlansa, ikkinchi bosqichi, XX-asrning 60-80 yillariga mos tushib, ta'lim amaliyotiga multimediyaviy dasturlarni qo'llash kuzatiladi. Uchinchi bosqichi, XX-asrning 80 va 90 yillariga to'g'ri kelib, multimediyaviy dasturlar vositasida chet tilini o'qitishda matn, grafika, ovoz, rasm, multiplikatsiya va videokliplardan foydalanishimkoni yaratilgan bo'lsa, to'rtinchi bosqichi, XX asrning 90-yillari va hozirgi davrni qamrab oladi.

Ko'rinib turibdiki, multimediyaviy dasturlarni yaratish va ta'lim amaliyotiga qo'llash jarayoni a) o'sha ijtimoiy-madaniy makonda axborot texnologiyalari vosita sifatida turli sohaga taalluqlib olingan bilimlarni yaratilishi uchun zamin bo'lib xizmat qilishini ta'minlanganligini; b) ta'limni pedagogik asoslari va ta'lim oluvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, bazaviy ta'lim doirasida ta'lim oluvchilarga AKT kompetentsiyalarini shakllantirib berilganligini; v) yagona ta'limiy axborot makonini yaratib, undan foydalanish tartibi va shartlarini ishlab chiqilganligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Akademik G.S.Pospelovning yangi axborot texnologiyalarini mohiyati - bilimlar zaxirasini tuzib, ularning asosida inson tafakkurini, boshqacha qilib aytganda o'quv jarayoni uchun o'qituvchi va o'quvchini qiziqishlari va intilishlari bo'yicha har qanday masalani kompyuterda imitatsiya yoki modellashtirib, faqatgina texnik fanlarda emas, balki gumanitar fanlarda ham qo'llashdan iborat-deb yozgani o'rinli hisoblanadi. Bizningcha yangi axborot texnologiyalari – ilmiy tadqiqotlar asosida jamlangan, qayta ishlov berilgan va saqlanadigan raqamli ko'rinishga ega bo'lgan majmua hisoblanib, sifatlanib, natijalarga erishish



uchun ulardan telekommunikatsiyava multimediyaviy vositalarini ishlab chiqishda – insonni intellektual faoliyatida foydalaniladigan ta’limiy manba hisoblanadi. Ta’lim muhitini raqamlashuvi natijasida, ta’lim jarayoni axborot bilan to’liq ta’minlanib, ta’lim jarayonini individualligi va intensivligiga talab ortib bormoqda. Bu holat o’z navbatida istiqbolli ta’limiy vositalarni yaratib, rivojlantiruvchi va personlashtirilgan ta’limga erishishni, kadrlarni til kompetensiyasiga ega bo’lishini, raqobatbardoshligini ta’minlashni talab etadi. Mazkur kontekstda chet tilini o’qitish amaliyotida:

ta’limiy axborotlarni o’zlashtirish jarayonini nazorat qilish;

ta’limning individuallashtirishini va komfortligini ta’minlash;

axborotni chiziqli tarzda bo’lmagan ko’rinishda etkazish;

ta’lim oluvchilarningidrok darajasini turli darajada ekanligini inobatga olish;

til muhitini mavjud emasligini inobatga olish;

til o’rganuvchilarni o’zlashtirish sur’atini inobatga olgan holda mashq berish;

bajargan (yozgan, talaffuz qilgan va boshqalar) vazifalarga mas’ul ekanligini o’qitirish;

chet tilini o’rganishda motiv, qiziqish kabi individual psixologik xususiyatlarni inobatga olish;

ta’lim jarayonida chet tilini o’rganuvchiga mansub bo’lgan madaniyat namunalariidan foydalanishkabi vazifalarni amaliyotda o’z aksini topishini ta’minlash kabi metodik masalalar dolzarblashadi.

Multimediyaviy dasturlardan chet tilini o’qitish amaliyotida qo’llashni pedagogik tavsifini amalga oshirishda, didaktik jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Chunki, madaniyatlar dialogi kontekstida yetkazilayotgan ta’limiy ma’lumotlar:

vizuallashtirilganlik (matn, video, audio va grafika tarzida);

o’zaro teskari aloqaga egalik (o’rganilayotgan til va til o’rganuvchining madaniyatlari namunasini ifodalash);

maqbullik (bir dastur turli nutq faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi);

manbalarning muvozanatligi (o’rganilayotgan til va til o’rganuvchining madaniyatlari namunasidan foydalanish) kabi tamoyillarga mos tushishi lozim.

Etnomadaniy xususiyat o’z navbatida chet tilini o’rgatuvchidan (pedagogdan), qiyosiy-madaniy va qadriyatli-rol tahlilini amalga oshirishni talab etadi. Umumiylik va xususiy tafovutni ajratmay, ularni boshqa bir til tashuvchiga (ta’lim oluvchiga) yetkazish samarasiz hisoblanadi. Madaniyatning maqsad va vazifalari, turlari, milliy madaniyatning o’ziga xos xususiyatlarini

strukturaviy tahlilini amalga oshirib, ularning qiyosiy sharhini chet tilida (ya'ni, o'rgatilayotgan tilda) amalga oshirish lozim.

Polietnik ta'lim muhitida chet tilini o'qitishda muhim didaktik vazifa sifatida o'rganilayotgan turkum madaniyatning variantligi va turli-tumanligi bilan tanishish lozim. Bu o'z navbatida til o'rganuvchidan o'z milliy madaniyati va o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi xalqlar madaniyati haqida axborot jamlash, madaniy elementlarini anglash, tahlilini amalga oshirish, umumlashtirish, guruhlarga ajratishni taqozo etadi. Chet tilini o'zlashtirish jarayoni an'anaviy, zamonaviy hamda faol ta'lim uslub va usullari vositasida audio-video materiallar yordamida ta'minlangan tarzda kechsa, o'zlashtirish ko'rsatkichining (academic achievement tests) muvaffaqiyatga erishish testi bo'yicha ball hisobida) samardorligi ta'minlanadi. Bu jarayonda o'quv materiallarini o'zlashtirish ta'limiy-kommunikativ, ya'ni dialog tarzida o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Sub'ektiv-ma'noli muloqot, chet tilini o'zlashtiruvchining shaxs sifatida o'zlashtirgan lug'aviy so'zlarini amaliyotda qo'llay olish vositasi hisoblanib, til o'rganuvchida nafaqat ijtimoiy jarayonlarga nisbatan, balki madaniy jarayonlar bilan bog'liq hodisalarga o'z nuqtai nazari – individual pozitsiyasini shakllantirib boradi. Bu xususda, A.V.Batarshev muloqot turli vazifalarni bajarishi bilan birga, shaxsning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi-deb munosabat bildirgan. SHu sababli talabalarda chet tilini o'rganish maqsadini to'g'ri shakllantirib, asosiy e'tiborni ularning ma'naviy etukligiga etnomadaniy toleratnlikni shakllantirishga ham qaratish shart. Bu, o'z navbatida chet tilini o'qitishda milliy-madaniy omildan majmua tarzida foydalanishni taqozo etadi. Chet tilini o'qitishda til o'rganuvchilarning o'z tilida yaratilgan ma'naviy meros namunalaridan ham foydalanib, maishiy va ijtimoiy munosabatlarda ularni amal qilishini multimediyaviy dasturlar asosida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni o'zlashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5117-son Farmoni;
2. Батаршев А.В. Психодиагностика способности к общению, или Как определит организаторские и коммуникативные качества личности. - М., 1999. – С. 48.
3. Бушуй А.М. Клишированность языка в ракурсе паремии образования // "Buyuk ipak yo'lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Samarqand: SamDCHTI nashri, 2016. – S. 24.
4. Кнодель Л.В. Компетенция и компетентность в сфере обучения иностранным языкам / Монография. – Киев: ФОП Кандиба Т. П., 2019. – 297 с.
5. Лозанова А.А. Дидактические взгляды Яна Амоса Коменского // Бюллетень медицинских Интернет-конференций (ИССН 2224-6150) 2019. Том 9.№10. –С.420.



6. Минзов А.С. Концепция индивидуального обучения в телекоммуникационной компьютерной образовательной среде // http://magazine.stankin.ru/arch/n_ob/articles/index.shtml

7. Попов Н.С., Чукцина Л.Н., Мозерова Л.А. Новые информационные технологии обучения иностранным языкам. Проблемы и перспективы интеграции высшей школы России в мировую систему образования и науки // Материалы междунар. науч. конф. Ч.2. - Воронеж, 2001. - С.138-140.,

8. Поспелов Г.С. Искусственный интеллект – основа новой информационной технологии. - М.: Наука, 1988. -280 с.

9. Соловцова Э.И. Понятие функциональной социокультурной грамотности в курсе обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе, 2007. - №2. - С.17-22., Интеграция науки, общества, производства и промышленности: сборник статей Международной научно-практической конференции (17 мая 2019 г, г. Тюмен). В 3 ч. Ч. 3. - Уфа: омега ссиенсэ, 2019. – 277 с.

10. Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю., Крюков А.Н. и др. отв. ред. Ю.А.Сорокин. Этнопсихоллингвистика. - М.: Наука, 1988. – С.82-95., Коротеева В.В. «Воображение», «Изобретение» и «Сконструированные» нации // Этнографическое обозрение. 1993. – № 3. – С.154–165.

11. Федоров А.В. Словар терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. - Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та, 2010. - 64 с

12. Berg V.E., Visscher-Voerman I. Multimedia Cases in Elementary Science Teacher Education: Design and Development of a Prototype // Education and Inf. Technol. 2000. V. 5, №2. -Pp.119 – 132.

13. Byram M. S. Cultural studies in foreign language education. - Clevedon; Avon, 1989. - 176 p.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada polietnik ta'lim muhitida chet tilini o'qitishda multimediyaviy ta'lim adabiyotlaridan samarali foydalanish tadqiq qilinadi. Muallif oliy ta'limda madaniyat va tillarning harxilligini hisobga olgan holda multimediyaviy resurslarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Maqola multimediyaviy ta'lim adabiyotlarining imkoniyatlarini baholab, talabalar uchun tillar o'rganishda madaniy muhitlar va tillar harxilligini hisobga olgan holda o'qish jarayoniga integratsiya usullarini taqdim etadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается вопрос эффективного использования мультимедийных учебных литератур в контексте преподавания иностранного языка в полиэтнической образовательной среде. Автор анализирует важность мультимедийных ресурсов в учебный процесс с учетом многообразия культур и языков в высшем образовании. Обсуждаются возможности мультимедийных учебных материалов и прилагаются методы интеграции в учебный процесс с учетом разнообразия культурных контекстов и языковых потребностей студентов для обучения иностранного языка.

SUMMARY

This study examines the effective use of multimedia educational materials in teaching foreign languages in a polyethnic educational environment. The authors analyzes the importance of multimedia resources in the educational process, considering the diversity of cultures and languages in higher education. The article discusses the possibilities of multimedia educational materials and provides methods for integrating them into the educational process, taking into account the diversity of cultural contexts and language needs of students for foreign language learning.